



O'ZBEKISTONDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHGA OID AMALGA
OSHIRILGAN ISLOHOTLAR MOHIYATI

Usmonqulova Shaxlo Keldiyor qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti tarix fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: dotsent A.Qandaxarov

Anatatsiya: *Korrupsiya terminining atamashunoslikda implimintatsiya qilinishi, korrupsiyaga doir huquqbuzarliklar sodir etishda bevosita tomonlarning aloqadorligi, jamiyatda ushbu illatga nisbatan keskin va murossasiz muhitni yaratish va odamlar ongida unga nisbatan toqatsizlik ruhini qaror toptirish, yosh avlodda faol fuqarolik pozitsiyasini yaratish.*

Kalit so'z: *korrupsiyaning kelib chiqishi, shakllanishi va uning bartaraf etish usullari, uning qonunchilikdagi o'rni.*

Korrupsiya balosini jamiyatimiz hayotidan yo'q qilishga qaratilgan siyosat kelgusida ham qat'iy davom ettiriladi.

Men Prezident sifatida ish boshlagan birinchi kunlardan o'z komandamni haqiqiy holatga mutlaqo aloqasi bo'lmagan balandparvoz gaplar va "chiroyli" raqamlarni yoqtirmasligimni aytib, qattiq ogohlantirganman.

Qanchalik achchiq va noqulay bo'lmasin, men faqat to'g'ri va haqqoniy ma'lumotni bilishni istayman. Bu men uchun to'g'ri qarorlar qabul qilishga yordam beradi.

Albatta, bu talabni hamma ham tushunib yetgani yo'q, haliyam eskicha usulda ma'lumot berishga urinishlar bo'lib turadi. Lekin men bunday holatlarga yo'l qo'ymaslikka harakat qilaman. Ana shu haqiqatni tushunmaganlarning ko'pchiligi bilan xayrlashdik va bu masalada talab doimo qattiq bo'ladi.

Xalqimiz, Vatanimiz manfaatlari, jamiyatimizning kelajagi, farzandlarimizning baxtini ta'minlashga qaratilgan bugungi islohot jarayonlarining o'zi shuni talab etmoqda. Bu borada boshqacha yo'l tutishga haqqimiz yo'q.

Yana bir bor aytaman, rahbar va mutasaddi shaxslar o'rtasida kimki ana shu o'tkir talabni tushunmasa, qanchalik og'ir bo'lmasin, ular bilan xayrlashamiz.

Mening mamlakatimiz bo'ylab amalga oshiradigan har bir tashrifimdan asosiy maqsad – xalq qanday yashayotgani, nima bilan nafas olayotganini bilishdan iborat. Bu – o'ta muhim masala. Shuning uchun ko'p hollarda safar davomida yo'nalishni to'satdan o'zgartirishimga to'g'ri keladi. Bunday kutilmagan, hech qanday protokolda qayd etilmagan "marshrut"lar joylardagi rahbarlarni bo'shshmasdan, doimo ishchan holatda turishga o'rgatadi, deb o'ylayman.

Afsuski, necha bor aytishim, ogohlantirishimga qaramasdan, joylarda faqat mening tashrifim oldidan ko'cha va maydonlarni tozalash, bir kechada binolar oldida "maysazor" va "gulzor"lar paydo qilish, umuman, haqiqiy holatni bo'yab ko'rsatishdek xo'jako'rsin ishlar davom etmoqda. Ko'zbo'yamachilik, odamlarni qiynash, soxta va balandparvoz gaplarga o'chlik yillar davomida ba'zi rahbarlarning qon-qoniga shu qadar singib ketgan ekanki, ulardan qutulish qiyin bo'lyapti. Lekin qanday bo'lmasin, bu kabi illatlarga butunlay chek



qo'yishimiz kerak. Chunki bunday holatlar rostgo'y, soxta gap va ishni umuman qabul qilmaydigan xalqimizning asl tabiatiga mutlaqo yotdir.

Mahalliy hokimiyat idoralarining ishi Prezident kelib ketishi bilan tugamasdan, aksincha, tashrifdan keyin yangitdan boshlanishi, hatto oldingidan ham ko'payishi lozim. Shundagina ishimizda sur'at va sifat bo'ladi, natija uchun ishlashga o'rganamiz. Ilgari hokimlar tashrifdan tashrifgacha bo'lgan vaqt oraliqida bamaylixotir, ta'bir joiz bo'lsa, yallo qilib yurardi, endi esa ular o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yib, xalq bilan maslahat asosida astoydil ishlamoqda. Chunki ular biladi: Prezident kelgusi safar albatta har bir masala bo'yicha aniq natijani so'raydi.

Biz mamlakatimiz taraqqiyotining bugungi yangi bosqichida oldimizda turgan dolzarb vazifalarni tezkor hal qilishda vazirliklar, davlat qo'mitalari, davlat boshqaruvining boshqa organlari va xo'jalik birlashmalari rahbarlari o'rinbosarlarining shaxsiy mas'uliyati va javobgarligini kuchaytirish, vazifa va vakolatlarini aniq belgilash, shuningdek, ularning faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha yangi tizimni joriy etishga alohida ahamiyat bermoqdamiz. Shu maqsadda maxsus qaror ham qabul qildik. Yuqorida aytib o'tilgan toifaga mansub rahbarlarning o'rinbosarlari o'zlariga biriktirilgan tarmoq va sohalardagi faoliyatining samaradorligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida shaxsan javobgar hamda Vazirlar Mahkamasi oldida hisobdor ekani belgilab qo'yildi. Boshqacha aytganda, turli bo'g'indagi rahbar o'rinbosarlari o'z boshlig'ining soyasida yuradigan vaqt o'tdi. Endi ular ham aniq vazifalar uchun javob beradi. Shaxsiy mas'uliyat va javobgarlik barcha boshqaruv idoralari xodimlari uchun bosh mezon bo'ladi.

Hozirgi kunda odamlarni qiynayotgan muammolarni joylarda, mahallaning o'zida hal etishga alohida e'tibor beryapmiz. Viloyat, tuman va shahar hokimlari haftada ikki kunni fuqarolarni qabul qilishga ajratmoqda. Shuningdek, kunlik qabullar o'tkazish tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Umuman, har bir hokimning kabineti "Xalq qabulxonasi"ga aylanishi lozim. Shunda har qaysi rahbar hududdagi haqiqiy ahvoldan to'la xabardor bo'ladi, ishida unum va samaraga erishadi.

Albatta, bugungi kunda odamlarni qanday masala va muammolar o'ylantirayotgani, tashvishga solayotganini yaqindan bilishda yordam beradigan ochiq manbalar, axborot tarmoqlari ko'p. Ayniqsa, televideniye, matbuot, Internet hayot nafasini, ta'bir joiz bo'lsa, har bir sohaning "yurak urishi"ni aniq-ravshan his qilishda muhim ahamiyatga ega. Shaxsan o'zim ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda berilayotgan yangiliklar, ular orqali bildirilayotgan dolzarb fikrlar, jamoatchilikning diqqat-e'tiborini tortayotgan voqea-hodisalar bilan imkon qadar bevosita tanishib borishga harakat qilaman.

Bir so'z bilan aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalari rivojlangan bizning davrimizda real hayotdan butunlay uzilib qolish mumkin emas. Shunga qaramasdan, xalq bilan turli ko'rinishdagi, deylik, bu rejadagi tadbir bo'ladimi yoki mahalla, tuman, qaysidir muassasaga kutilmagan holatda kirib borish orqali bo'ladimi, umuman, bevosita muloqot hamisha kerak, deb hisoblayman.

Fuqarolar, keng jamoatchilik tomonidan qizg'in muhokama qilinayotgan barcha muammolar e'tibor qarataishni talab etadi. Ularni inkor qilish mumkin ham emas. Albatta, jamiyatdagi qonun buzilishi, adolatsizlik, inson huquqlariga bepisand munosabat,



korrupsiya bilan bog'liq holatlarga beparvo qarab bo'lmaydi. Tizimli tus olgan yoki juz'iy muammo bo'ladimi, ularning barchasiga darhol munosabat bildirib, tagiga yetish va hal etish zarur.

Masalan, keyingi yillarda tub islohotlar davriga qadam qo'ygan mamlakatimizda taraqqiyot kushandasi bo'lgan illat – korrupsiyaga qarshi izchil kurash olib borilmoqda. Misollarga murojaat qiladigan bo'lsak, 2020 yilda turli darajadagi mansabdorlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun 1723 shaxs jinoiy javobgarlikka tortilgan. Ular tomonidan yetkazilgan zarar 500 milliard so'mni tashkil etgan. 2021 yilning besh oyida esa 1696 nafar mansabdorga nisbatan jinoiy ish ochilgan. Yetkazilgan zarar 450 milliard so'mni tashkil etmoqda.

Hech shubhasiz, bu moddiy zararlar aybdorlardan undirib olinadi. Korrupsiya balosini jamiyatimiz hayotidan yo'q qilishga qaratilgan siyosat kelgusida ham qat'iy davom ettiriladi.¹

Korrupsiya bu — jamiyatni jaholat jarligi sari yetaklovchi ko'rinmas kuch, demokratiya ildiziga bolta uruvchi, rivojlanishga qarshi chiquvchi illatdir. yovuz . Mazkur illat demokratik davlatda huquq va qonun ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson va fuqaro huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar munosabatlari faoliyatiga to'sqinlik qiladi, munosib hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm, odam savdosi va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi. Korrupsiyaning kelib chiqishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixiy manbalar guvohlik berishicha, korrupsiya dastlab qabila sardorlariga turli mavqe' yoki ulushga ega bo'lish uchun har xil ko'rinishdagi qimmatbaho sovg'a yoki buyumlar berish orqali yuzaga kelgan ya'ni temir asrida paydo bo'lgan degan teoremaga asoslangan. Ya'ni korrupsiya davlatchilik asoslari paydo bo'lishidan oldin ilk elementlari bilan ko'zga tashlangan va bu o'sha davr uchun odatiy hol hisoblangan. Ilk davlatchilik taraqqiy etib, boshqaruv organi singari tuzilmalar shakllanib borgan sari korrupsiya jamiyatning har bir tarmoqlariga kirib kela boshladi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma'lum. Chunki bu holat davlatning obro'siga juda qattiq putur yetkazardi. Qadimgi Yunoniston davlatida oddiy xalq vakillari oqsoqollarga va turli darajadagi amaldorlarga sovg'a-salomlar berishgan. Xuddi shunday holatlar qadimgi Misrda ham kuzatilgan: bu yerda erkin dehqonlar, hunarmandlar va hatto harbiy ayonlarga nisbatan ham o'zboshimchalik va zo'ravonlik ishlatgan hamda qonunbuzarliklarni o'ziga kasb qilib olgan amaldorlar byurokratik apparati yuzaga kelgandi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rliqi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda "Sovg'alarni qabul qilma, chunki sovg'a ko'rni ko'radigan qiladi va haqiqatni o'zgartiradi" deyilgan bo'lsa, Qu'roni Karimda "Boshqalarning mulkini nohaq yo'l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo'lgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat mirziyoyevning 2021-yil 17-avgustda «Yangi O'zbekiston» gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi. www.uzreport.news



narsalarni olish uchun o'z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar" deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko'proq ta'sir ko'rsata boshladi. Bu o'sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish mumkin bo'lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko'rsatib o'tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o'rning oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlari nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Korrupsiyaga qarshi kurshish v uning javobgarlik asoslari turli davlatlarda turlicha bo'ladi. Masalan, Yaponiya va Xitoyda korrupsiya bilan ayblangan mansabdor shaxslarga nisbatan o'lim jazosi qo'llaniladi. Milliy qonunchiligimizda esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida pora olish, pora berish, pora berishda vositachilik qilish, moddiy boylik yoki mulkiy manfaat evaziga muayyan harakatlarni bajarish uchun tegishli javobgarlik belgilangan. (JK 210-modda. Pora olish ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsining o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora berayotgan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga shaxsan o'zi yoki vositachi orqali qonunga xilof ekanligini bila turib, moddiy qimmatliklar olishi yoxud mulkiy manfaatdor bo'lishi, 211-modda) Pora berish, ya'ni davlat organi, davlat ishtirokidagi tashkilot yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdor shaxsiga mazkur mansabdor shaxsning o'z xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etishi lozim yoki mumkin bo'lgan muayyan harakatni pora bergan shaxsning manfaatlarini ko'zlab bajarishi yoki bajarmasligi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib bevosita yoki vositachi orqali moddiy qimmatliklar berish yoki uni mulkiy manfaatdor etish, 212-modda Pora berishda vositachilik qilish, ya'ni pora olish yoki berish xususidagi kelishuvga erishishga qaratilgan faoliyat, shuningdek manfaatdor shaxslarning topshirig'i bilan porani bevosita berish,²)

Korrupsiyani butkul bartaraf etish uchun mansabdor shaxslarda ushbu illatga qarshi imunitetni shakllantirish kamlik qiladi, qachonki fuqarolarda korrupsiyaga toqatsizlik ruhi qaror topsagina bu illat asta-sekin chekina boshlaydi. Xususan, shaxslar davlat idoralarida o'z ishlari ertaroq hal etilishi uchun yoki sog'liqni saqlash tizimida faoliyat olib boruvchi shaxslarga o'z yaqinlariga yaxshiroq e'tibor berishlari uchun turli sovg'a yoki qimmatbaho buyumlar berish orqali passiv pora beruvchi sifatida namoyon bo'ladi. **Korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga qarshi kurashishni biz, eng avvalo, o'zimizdan boshlashimiz darkor.** Buning uchun esa shaxsning huquqiy ong va huquqiy madaniyati yetarli darajada shakllangan bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashishga oid president farmoni va qarori loyihalari e'lon qilindi.

² O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi. Toshkent. "Yuridik adabiyotlar publish" 2021



Loyihalar korrupsiyaga qarshi murosasizlik muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirishni ko'zda tutadi.

Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan holi sohaga aylantirish maqsadida:

1. O'zbekistonda korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini yuritish taklif etilmoqda.

2. Reyestrda kiritilgan shaxslarga quyidagilar taqiqlanishi mumkin:

- davlat xizmatiga qabul qilinish;
- davlat mukofotlari bilan taqdirlanish;
- saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarini ko'rsatish;

- davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a'ziligiga kirish;

- ular tomonidan ta'sis etilgan va (yoki) ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik sub'yektlari davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik bitimida ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashishi, davlat aktivlarini xususiy lashtirish bilan bog'liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etishi;

- davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida ishlash.

Loyihaga ko'ra, 2022 yil 1 yanvardan boshlab, davlat xizmatchilari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar, davlat korxonalari va muassasalari rahbarlari va o'rinbosarlari, shuningdek, ularning turmush o'rtog'i va voyaga yetmagan farzandlarining daromadlari va mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish tizimi joriy etiladi.

Bunda:

- mol-mulkni deklaratsiya qilishda uning kelib chiqish manbasini tasdiqlash sharti 2022 yil 1 yanvardan so'ng orttirilgan mol-mulkka nisbatan tatbiq etiladi;

- davlat xizmatchisi tomonidan deklaratsiyani taqdim etishdan bosh tortish va qasddan noto'g'ri ma'lumotlarni kiritish uni davlat xizmatidan chetlashtirishga va qonunda belgilangan javobgarlikka tortishga asos bo'ladi.

2022 yil 1 yanvardan davlat xizmatchilariga respublika hududidan tashqarida hisobraqamlar ochish va egalik qilish, naqd pul mablag'larini saqlash, ko'chmas va boshqa mol-mulkka ega bo'lish taqiqlanadi.

Loyihada berilgan ta'rifga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi deganda "qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan lavozimni egallab turgan shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab (xizmat) majburiyatlarini ob'yektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyatlar" tushuniladi.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlar va ularning oldini olish bo'yicha o'z vaqtida chora ko'rmaganlar javobgarlikka tortiladi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq har qanday holatlar aniqlanganda, shartnoma, buyruq va boshqa hujjatlarni to'xtatish to'g'risida



taqdimnoma yoki uni haqiqiy emas deb topish bo'yicha sudga da'vo kiritish vakolati beriladi.

2022 yil 1 yanvarga qadar quyidagi qonun loyihalari ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritiladi:

- “Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish to‘g‘risida”;
- davlat xaridlari, soliq imtiyozlari, yer ajratish, davlat aktivlarini xususiylashtirish sohalarida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yganlik uchun javobgarlik belgilash haqida.

Farmon qabul qilingach, 3 oy ichida quyidagilarni nazarda tutuvchi qonun loyihasi parlamentga kiritiladi:

- Jinoyat kodeksida korrupsiyaga oid jinoyatlar toifasiga kiruvchi moddalarning aniq ro‘yxatini belgilash;

- korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun belgilangan jazo choralari uzoq muddatli ozodlikdan mahrum qilish jazo chorasigacha keskin kuchaytirish;

- daromadlar va mol-mulkni deklaratsiyalash jarayonida aniqlangan noqonuniy bo‘ylik orttirganlik uchun javobgarlik o‘rnatish;

- korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jinoiy jazoni o‘tashda yengillashtiruvchi normalar qo‘llanishiga cheklovlar belgilash.³tartiblari o‘rnatildi.

Adliya vazirligi korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha prezident farmoni loyihasini muhokama uchun e‘lon qildi. Unga ko‘ra, korrupsion jinoyatni sodir etganlarning ochiq elektron reyestrini yuritish, ularning davlat xizmatida ishlashi va saylovlarda qatnashishini taqiqlash taklif etilmoqda. Shuningdek, davlat xizmatchilariga chet elda bo‘ylik orttirish man etiladi.⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi.Toshkent.”Yuridik adabiyotlar publish”

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining“ O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlat to‘g‘risida”gi2020-yil 29-iyundagi PF 6013-sonli farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat mirziyoyevning 2021-yil 17-avgustda «Yangi O'zbekiston”gazetasi bosh muharririga bergan intervyusi.www.uzreport.news

4. 23.06.2021 www. review.uz sayti

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining“ O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlat to‘g‘risida”gi2020-yil 29-iyundagi PF 6013-sonli farmoni

⁴ 23.06.2021 www. review.uz sayti